

XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH



**RAJABOV DONIYOR DILSHOD
O'G'LI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti "Buxgalteriya
hisobi" kafedrasida assistenti
Rajabovdoniyor1411@gmail.com*

[https://doi.org/10.47689/STARS.
university-5-pp36-41](https://doi.org/10.47689/STARS.university-5-pp36-41)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida dolzarb muammolardan biri bo'lgan xarajatlarni budjetlashtirish va boshqarish masalalari ko'rib o'tilgan hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda daromadlarini oshirishlari uchun o'zlarining faoliyatini istiqbolli rejalashtirishlari zarur bo'ladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlarni guruhlash va unga ta'sir etuvchi omillar borasida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: mahsulot tannarxining dinamikasi, xarajatlarni boshqarish, budjet, moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv, daromad, budjetlashtirish, menejer, egri xarajatlar, to'g'ri xarajalar.

Iqtisodiyotimizning rivojini belgilab berishda buxgalteriya hisobi tizimi muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni boshqarishda asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida bir necha usul va uslubiyotlardan foydalaniladi.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish muammolarini quyidagi ikki qismga ajratish mumkin:

- xalqaro miqyosdagi;
- milliy miqyosdagi.

Buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishning xalqaro miqyosdagi muammosi bu - jahon amaliyotidagi buxgalteriya hisobi tizimlarini yagona standart asosida tashkil etish. Milliy miqyosdagi muammosi bu - amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishdir.

Xalqaro miqyosda hanuzgacha buxgalteriya hisobining nazariy jihatdan tashkiliy tuzilishi borasida, jumladan, uning bir qismi hisoblangan xarajatlar hisobini tashkil qilish to'g'risida har xil yondashuv va fikrlar mavjud. Chunki xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir qiluvchi omildir. Mahsulot tannarxining dinamikasidan uch tomon manfaatdordir.

1. Ishlab chiqaruvchi,
2. Xaridor yoki iste'molchi va
3. Davlat (daromad solig'i nuqtai nazaridan).

Amaliy jihatdan ba'zi bir muammolar borki, uning natijasida xarajatlarni boshqarish, ularning harakati ustidan nazorat o'rnatish va aniq ma'lumotlarni olish,

hisobini to'g'ri tashkil etishda noaniqlik va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi asossiz yo'qotishlarga hamda mahsulot tannarxining sun'iy oshib yoki kamayib ketishiga olib kelmoqda. Bunday mavhum qarashlar, salbiy holat va talablar amaldagi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, uning zamonaviy usul va uslubiyotlarini yaratish, fanning rivojlanish tarixi va istiqbollarini hamda respublikamiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bu sohada islohotlarni amalga oshirishni zaruriy shart qilib qo'ymoqda.

Unumli xarajatlarga xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy natijasining shakllanishida o'z o'rniga ega bo'lgan xarajatlar, ya'ni xomashyo va material xarajatlar, ish haqi xarajatlari, asosiy vositalarning eskirish qiymati kabilar kiradi. Unumsiz xarajatlarga xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning daromadi hisobidan qoplanadigan yoki ularning zarariga olib boriladigan xarajatlar, ya'ni asossiz yo'qotishlar, yaroqsiz mahsulotning paydo bo'lishi, me'yordan ortiqcha tabiiy yo'qotish kabilar kiradi. Bunday xarajatlar boshqarilmaydigan xarajatlar deb ham yuritiladi.



Respublikamiz iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlarining yangi shakllari paydo bo'lishi natijasida an'anaviy buxgalteriya hisobi tizimining tashkiliy tamoyillari ham ma'lum darajada o'zgardi. Bunday o'zgarishlar oqibatida tannarxning sir tutilishi, xarajalar yo'nalishining o'zgarishi pirovardida ularni boshqarishning tashkiliy tamoyillari va uslubiyotini ilmiy-nazariy jihatdan qayta o'rganib chiqish zaruriyati kelib chiqdi.

Byudjetlashtirish korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi. Korxonalar kelgusida daromadlarini oshirishlari uchun o'zlarining faoliyatlarini istiqbolli rejalashtirishlari zarur bo'ladi. Uning asosini esa budjetlashtirish tashkil etadi. Budjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish xarajatlarni smetalash, budjetni solishtirish va ushbu budjetga nisbatan haqiqiy va prognoz qilingan xarajatlarni boshqaradi.

Bugungi kundagi hisob tizimining asosiy vazifalaridan biri ko'rsatib o'tilgan unumsiz xarajatlarning oldini olish bilan samaradorlikka erishish bo'lib turibdi. Shu sababdan xarajatlarni boshqarish va o'zgarishini nazorat qilishda oqilona, zamonaviy usullardan foydalanish, tarmoq ishlab chiqarish xususiyatiga mos keluvchi yangi uslubiyotni yaratish zaruriy shart bo'lib qolmoqda.

"Byudjet" atamasi keng ma'noda, davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida hukumat ixtiyorida markazlashgan pul fondlarining, korxonalar ixtiyorida esa markazlashmagan pul fondlarining shakllanishi va ulardan oqilona foydalanishni anglatadi. Tor ma'noda esa, "budjetlashtirish" atamasi hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritilmagan, chunki korxonaning doimiy asosga qo'yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznec-pejalashtirish bilan cheklangan edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv hisobida rejalashtirish jarayonini ta'riflash uchun "budjetlashtirish" atamasidan keng foydalaniladi. Budjetlashtirish korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi. Budjetlashtirishning afzalligi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Budjetlashtirishda asosiy e'tibop mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Boshqaruv va ishlab chiqarish hisoblarini turg'un hisob turlari kiradi. Bunday deb atashimizning asosiy sababi - bu hisob turlarini tashkil qilish moliyaviy hisob kabi qat'iylikni talab qilmaydi, ularni tashkil qilish xo'jalik yurituvchi sub'yektlar rahbarining roziligi va korxonaning ishlab chiqarish xususiyatiga bog'liqdir. SHu sababdan ham boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish hisobi bir-biriga yaqin turadi. Ularning tashkiliy va uslubiy jihatlarida har xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi hollarda bunday qarash va fikrlarda salbiy holatlarni ham ko'rish mumkin. Nazariy jihatdan olimlarning bu boradagi ta'riflari, fikrlari va takliflari asosida qaraydigan bo'lsak, boshqaruv hisobi boshqarish jihatidan korxonaning butligini o'zida namoyon etadi, ishlab chiqarish hisobi esa korxona xo'jalik faoliyatining asosiy bir qismi bo'lgan, ya'ni faqat ishlab chiqarish jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu esa boshqaruv hisobi ishlab chiqarish hisobiga nisbatan kengroq ma'noda qo'llanishini anglatadi. Lekin tashkiliy jihatdan ulardagi tafovut korxona xususiyatidan kelib chiqadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning asosiy xo'jalik faoliyati ko'p assortimentli

mahsulot ishlab chiqaruvchi, uzoq texnologik bosqichga ega bo'lgan va bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajaruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda ishlab chiqarish hisobining o'rni kattadir.

Budjetlashtirishning quyidagi ijobiy jihatlari mavjud:

- korxonaning asosiy maqsadini ta'minlashda xizmat qiladigan jarayonlarni rejalashtiradi;
- alohida bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- korxona bo'linmalari rahbarlarini o'z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga ko'maklashadi;
- korxona xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rioya qilishlarini ta'minlashga xizmat qiladi;
- korxona alohida bo'linmalari rahbarlarini belgilangan rejalarning bajarilish darajasini baholashlarida asos bo'ladi.

Budjetlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- korxonaning maqsadlariga erishishini ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish;
- barcha darajadagi rahbarlarni o'zlari javobgar markazlar maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;
- turli xil bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo'linmalar xodimlarining manfaatlari e'tiborga olinadi;
- korxona joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta'minlash;
- javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo'yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o'tash;
- menejerlar malakasini oshirishda ko'maklashish.

Budjetlashtirish samarali boshqaruv usullaridan hisoblanib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- korxonaning faoliyati bilan bo'linmalar faoliyatini kompleks rejalashtiradi;
- budjetlashtirish loyihasini ishlab chiqish imkonini yaratadi;
- tuzilgan biznes-rejani tasdiqlaydi;
- o'zgarib turuvchi ichki va tashqi salbiy omillarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar kelgusida daromadlarini oshirishlari uchun o'zlarining faoliyatlarini istiqbolli rejalashtirishlari zarur bo'ladi. Uning asosini budjetlashtirish tashkil etadi.

Budjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish xarajatlarni smetalash, budjetni solishtirish va ushbu budjetga nisbatan haqiqiy va prognoz qilingan xarajatlarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Budjet rejalashtirilgan xarajatlar darajasini belgilaydi, bu baza sifatida ishlatiladi, unga qarshi siz haqiqiy xarajatlar va prognoz qilingan foydada farqlarni kuzatishingiz mumkin. Budjet tuzish jarayoni yaqinda oddiy yillik jarayondan kompaniyaning ustuvor vazifalari va rejalarini har tomonlama baholashga aylandi. Korxonalarning raqobatbardoshligi oshgani sayin, ustuvorliklar va prognozlarni o'z vaqtida belgilash qiyinlashadi. Ko'pgina kompaniyalar qat'iy qarorlarga tayanadilar: ya'ni ular yangi moliya yilida o'tgan yilgi moliyalashtirish darajasida, budjet qo'mitasi ichidagi kelishmovchiliklar hal etilmaguncha ishlaydi.

Shuning uchun biz eng avvalo xarajatlarning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri tushuna bilishimiz kerak. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra xarajatlar iqtisodiy elementlari va

kalkulyasiya moddalari bo'yicha guruhlanadi hamda iqtisodiy elementlari bo'yicha tannarxga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar ham alohida guruhlanadi. Angliya - Amerika maktabi vakillari XIX asr boshlaridayoq xarajatlarni tijorat va ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan. Ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi uch guruhga bo'lingan: to'g'ri, paydo bo'lish joyi (sex bo'yicha) va umumiy.

Ishning hajmidan kelib chiqib faollik darajasi bo'yicha (ishlab chiqarish yoki sotish hajmiga qarab) xarajatlarni guruhlash usuli xorijiy davlatlarda xarajatlarni samarali boshqarishda keng qo'llaniladi hamda quyidagicha guruhlanadi:

-o'zgaruvchan xarajatlar;

-doimiy xarajatlar.

Bugungi kunda respublikamiz buxgalteriya hisobi tizimini nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, o'zgaruvchan xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarib turuvchi harajatlar kiradi (xomashyo va materiallar, texnologik maqsadlar uchun sarflanadigan yoqilg'ilar, ishlab chiqarishdagi ishchilarga hisoblanadigan ishbay ish haqi va boshqalar).

Bunday xarajatlar 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy satandartiga asosan quyidagi hisoblarda qayd etiladi:

1010 - "Xomashyo va materiallar";

1020 - "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar";

1030 - "Yoqilg'ilar";

1040 - "Ehtiyot qismlar";

1050 - "Qurilish materiallari";

1060 - "Idish va idishbop materiallar";

1070 - "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar";

1090 - "Boshqa materiallar";

6710 - "Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar".

Ko'rsatib o'tilgan o'zgaruvchan xarajatlar ichida shunday mablag'lar borki, ular ishlab chiqarish jarayoni davomida nafaqat miqdoriy o'zgaradi, balki ular o'z mazmunini ham o'zgartiradi. Masalan, bir korxona o'z xomashyosidan qayta ishlash uchun ikkinchi korxonaga buyurtma berdi. Bunday jarayon tufayli xomashyoning qiyofasi mazmunan o'zgaradi. Ya'ni, birinchi korxonada "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" nomini oladi va 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standartining 1070 - "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schyotida hisobga olinadi. Bu schyot korxona balansining "Joriy aktivlar" bo'limida ko'rsatiladi. Ikkinchi korxonada esa "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" (ko'p hollarda "Daval xomashyo" deb ham yuritiladi) nomini oladi va 003 - "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" schyotida hisobga olinadi. Bu schyot korxona balansining "Balansdan tashqari schyotlar" bo'limida hisobga olinadi.

"1070 - "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schyotida chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Bunda materiallarga qayta ishlov berish bilan bog'liq chetdagi korxonalarga to'langan xarajatlar bevosita qayta ishlashdan olingan buyumlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetiga olib boriladi" hamda "003 - Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" schyoti ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan to'lanmaydigan va qayta ishlash uchun berilgan (davalcheskoe siryo) buyurtmachining xomashyo va materiallarining mavjudligi va xarakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan. Xomashyo va materiallarni qayta ishlash yoki qo'shimcha ish-

lov berish (buyurtmachining xomashyo va materiallari qiymatidan tashqari) xarajatlarning hisobi xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda yuritiladi.

Boshqarish va nazorat qilish nuqtai nazaridan qaraganimizda xarajatlarni nazorat qilinadigan va vaqtincha nazorat qilib bo'lmaydigan xarajatlarga bo'lib o'rganish ham mumkin. Nazorat qilinadigan xarajatlarga korxonaning mas'ul javobgar shaxslari yoki boshqacha qilib aytganda, javobgarlik markazlari tomonidan nazorat qilib turiladigan xarajatlar kiradi. Masalan, bunga ombordan ishlab chiqarishga berilayotgan xomashyo miqdori va sifati, ishlab chiqarishda sarflanayotgan elektr energiya, mehnat haqi xarajatlari va shu kabi xarajatlar kiradi.

Ba'zida xarajatlarning sodir bo'lishi yoki ularning qiymati o'zgarishini ular uchun mas'ul javobgar shaxs yoki javobgarlik markazlari tomonidan nazorat qilib bo'lmaydi. Masalan, tovar-moddiy boyliklarning davlat tomonidan chiqarilgan qarorlar asosida qayta baholanishi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirish me'yorlarining soliq qonunchiligi asosida o'zgartirilishi mumkin. Bu xarajatlar o'ziga xos usullar bilan boshqariladi va nazorat qilinadi. Xarajatlarini boshqarish va nazorat qilishda qaysi usulning qo'llanilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish xususiyati va rahbarining xohishiga bog'liqdir. Qaysi usuldan foydalanish korxona uchun qulay bo'lib, manfaat keltirsa va rahbar uchun ma'qul bo'lsa, bu usullar albatta, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob siyosatida ko'rsatilib o'tiladi va amaliyotga joriy qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016-yil 13-aprel. № O'RQ-404.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020-y. PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.»O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2020-yil 2-mart, 8-son, 83-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida"-gi nizom.

4. Мизиковский Е.А. Методология и организационные принципы производственного учета на предприятиях машиностроения в условиях развития рыночных отношений.- М.: Всесоюзный заочный финансово-экономический институт, диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 1991 г.

5. Соколов Я.В. Очерки по истории бухгалтерского учета.- М.: Финансы и статистика, 1991.- 400 с.

6. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi.- T.: "Iqtisod-moliya", 2005.- 320 b.

7. Xolbekov R.O. Ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish tamoyillari va uslubi.- T.: "FAN", 2005.- 198 b.

8. (2.198.) Qodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi.- T.: O'zbekiston, 1993.- 360 b.